



“TIL VA IMLO MUAMMOLARI”

**mavzusidagi respublika
ilmiy-amaliy anjumani
materiallari**





“TIL VA IMLO MUAMMOLARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani
materiallari

Toshkent – 2023

3. Muqaddas oylar va mustajob duolar / tarjimon va musannif D. Sarvarova. –T.: “Sharq”, 2014. – 448 b.
4. Нарбеков А. В. Диншунослик асослари: Ўқув қўлланмаси. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2008. – 240 б.
5. Qur’oni Karim.”G’oshiya” surasi. 17-oyat. Т.: “HILOL NASHR” nashriyot-manbasi. Ma’nolar tarjimasini. – 403 b.
6. Qur’oni Karim. Qalam surasi. 51-52-oyat “HILOL NASHR” nashriyot-manbasi. Ma’nolar tarjimasini. – 403 b.
7. Rabg’uziy N. Qisasi Rabg’uziy. Т.:Yozuvchi, 1990. – 104 b.
8. Хожин Исмаилов, Абдуллох. Марказий Осиёда Ислам маданияти. К.иск.ача маълумотнома. Т.: Шарк, 2005. – 384 б.
9. Xudoyberganova D. «Hidoyat» jurnalining 2000-yil 1-sonidan olindi.
10. <https://najokemasi.net>.
11. Azon. Uz

Metaforaning o’rganilishi

Sharipova Ozoda,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,

Ozodaxon925@gmail.com

Annotatsiya. Metaforologik qarashlar antic davrdan bugunga qadar ko’pgina soha vakillari bilan bir qatorda tilshunoslar tomonidan ham o’rganilib kelinayotgan muhim mavzulardan biridir. Bu mavzuda olib borilgan keng tadqiqotlar bilan yaqindan tanishish uning mohiyati va amaliy ahamiyatini yanada to’laroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: metaforanazariya, metonomiya, o’xshashlik, til birliklari, ko’chim, majoziy ma’no, so’zlardagi uslubiy bo’yoqdorlik.

Tilshunoslikka ritorika san’ati orqali kirib kelgan metaforologik qarashlar antik davrdan bugunga qadar o’rganilib kelinayotgan muhim mavzulardan biridir. Tilevolutsiyasitadqiqigabag’ishlanganasarlardametaforalardastlabAristotel, Sitseron, Kvintilianlar tomonidan izohlanganligi aytilib, ularda metaforaning psixolingvistik tabiati, inson his-tuyg’ularining belgilarga aylanishisof fiziologik omillar bilan asoslanganligi, estetika va tasviriy nutq vositasi ekanligita’kidlanadi. Fanda dastlab metaforani nazariy jihatdan tekshirgan antik olimlardan Aristotel “Poetika” asarida nom ko’chishining bu turiga metafora (yun. «ko’chim») atamasini qo’llagan va uni nom ko’chishining har qanday turi deb ta’riflagan. Uning bu mulohazalari tufayli metafora ilmiy iste’molga kirgan. Kvintilian esa metaforaga metonimiyaning zidi sifatida qarab, uning amaliy ahamiyatini nutqqa nominativlik, baholov va dekorativlik ottenkasini berish deb izohlaydi. Sitseron esa metaforaga tildagi lakunar ma’nolarni to’ldirish usuli

sifatida yondashgan va o'xshashlik asosidagi ko'chim tildagi so'zning tegishli nomlovchisi bo'lmaganda kuzatiladi, deb mulohaza qilgan.

Keying asrlarda metaforologik nazariyani noto'g'ri talqin etish oqibatida mazkur muammoga nisbatan qiziqish ancha susayib, XVIII asrgacha bu haqda deyarli hech qanday mahsuldor qarashlar ilgari surilmadi. Metaforani jiddiy va chuqur tekshirish XX asrdagina ko'hna Hind, Xitoy faylasuf va tilshunoslarining asarlarini o'rganish evaziga amalga oshirila boshlandi. Ayniqsa, o'tgan asr yakuni va yangi asr avvalidagi tadqiqotlarda metafora mohiyatiga turli tomondan baho berish natijasida tadqiqotlarda bir necha guruhlar yuzaga keldi. Adabiyotlarda asosan quyidagi to'rt guruh ajratib ko'rsatiladi:

1. Metaforani global, umummadaniy fenomen sifatida tekshiruvchi tadqiqotlar (O.Freydenberg, E.Noyman, A.N.Panchenko, I.P.Smirnova va b.). Mazkur tadqiqotlar, birinchi navbatda, mifopoetik davrga murojaat qiladi va mazmun-mohiyati, ahamiyati vaqt o'tishi bilan ham susaymaydigan, aksincha, ma'nosi barcha madaniyat vakillariga birday tushunarli bo'lgan metaforalarni tekshiradi.

2. O'zining spetsifik xususiyatlari, tafakkur qilish uslubiga ega bo'lgan mental yaxlitlik sifatidagi muayyan davr merosi tahlil etiladigan izlanishlar (I.K.Golenishev-Kutuzov, O.Shpengler, Xose Ortega-i-Gasset, I. Prigojin, A.N.Luk va b.).

3. Bazaviy metaforalarning etnomadaniy o'ziga xoslik bilan assotsialanishini tekshiruvchi yo'nalish (D.Lakof, M.Jonson, T.Cherdanseva, G.D.Gachev va b.).

4. Bazaviy metaforalarni voqelikni inson faoliyatining muayyan sohasi doirasida tushuntiruvchi model sifatida o'rganuvchi tadqiqotlar (S.S.Gusev, G.G.Kuliyev, G.Sele, D.Gordon va b.) [5].

Ikkinchi ming yillikning boshi jahon tilshunosligi va o'zbek tilshunosligida metaforani antroposentrik, xususan, kognitiv tomondan o'rganishning ilk bosqichi bo'ldi. Metaforologiya fanlararo tizim sarhadiga kirib kelgach antroposentrik tabiatli metafora markazida inson metaforogen faoliyati turuvchi bir necha yo'nalishlar tekshiruv obyekti sifatida fanlararo aloqadorlikda o'rganilishi talab qilinadigan sohalardan biriga aylandi. Antropologiya, biologiya, genetika, kimyo, kognitiv fanlar, iqtisodiyot, matematika, fizika, psixologiya va yana bir qator fan tarmoqlari leksikasida metaforalarni tekshirishga qaratilgan zalvorli ish ko'lamini yuzaga keldi. Bularning barchasi o'zaro integratsiyada bo'lib, metaforaning aniq tasnifi barcha fanlarning tadqiq natijalariga tayangan holda aniqlanadi. Bugungi kunda metaforologik obyektlarning zamonaviy chegaralari va ushbu obyektlarni nomlovchi atamalarning mazmunini aniqlash, bilimlarni metaforik uzatish, metaforizatsiya-kodlash, dekodlash kabi qator murakkab masalalarni etnografiya, tarix, sotsiologiya, psixologiya, falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tibbiyot, genetika kabi sintetik sohalarning natijalarini birlashtirish orqali hal etishga kirishilgan.

Bundan tashqari, metaforologiyaning ichida falsafiy, mantiqiy, psixologik, lingvistik turlari ajratib ko'rsatiladi.

Metaforologiyada falsafiy yondashuv S.Pepper, I.A.Richards, M.Foss, H.Blumenberg, M.Johnson, O.M.Bessonova, V.V.Petrov, G.G.Kuliyev, J.Derrida, F.Besien, X.Ortega-i-Gasset, M.I.Panov, G.S.Baranov, V.A.Surovsev va boshqalarning izlanishlarida asoslangan. Metaforaning psixolingvistik tabiatini birinchi marta I.M.Sechenov o'rgandi va inson his-tuyg'ularining belgilarga aylanish jarayonini sof fiziologik omillar bilan asosladi. Mavzuning mantiq, xotira, tasavvur, lisonga aloqador tomonlari esa G.Leybnis, G.Frege, Ch.Pirs, va boshqa bir qator olimlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Metaforalarning falsafiy-nazariy asoslari, mantiqiy tahlili, yondosh ko'chimlardan farqli jihatlari, omamental, prakseologik xususiyatlari hamda falsafiy paradigmasini aniqlash borasida N.Arutyunova, M.Blek, P.Rikyor, E.Kassirer, R.Yakobsonlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Shuningdek, J.Lakoff, M.Jonson, Y.Gogonenkova, Y.Akishina, N.Sharbonel, G.Ermolenko, I.Polozova, M.Merleau-Ponty, V.Pustovalova, D.Montminy, Y.Reshetnikova, Y.Malishkin va D.Ashurovalar konseptual metafora tushunchasining kognitiv, pragmatik, lingvomadaniy jihatlari ochib berishgan.

O'zbek tilida metaforalarning o'rganilish tarixi XX asming so'nggi o'n yilliklarida, ayniqsa, rivoj topdi. Tilshunosligimizning yangi bosqichida M.M.Mirtojiyev, R.Qo'ng'urov, M.Yo'ldoshev, N.M.Mahmudov, D.S.Xudoyberganova, G.K.Qobuljonova, A.Xo'jamqulov, Sh.Maxmaraimova, D.Rustamova, G.Nasrullayevalarning metaforaga oid ilmiy tadqiqotlari yuzaga keldi.

O'zbek tili materiali asosida metaforaning milliy-madaniy, lisoniy, semantik hamda kognitiv xususiyatlari Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, M.Mirtojiyev, M.Mamadaliyeva, G.Qobuljonovalar tomonidan o'rganildi. Tilshunos olimlardan D.Xudayberganova, Sh.Maxmaraimovalar zamonaviy metaforologiyaning g'oyalariga uyg'un holda metaforaning antroposentrik tabiatiga ko'proq urg'u berishadi.

Olimlarning asarlarida bir-biridan farq qiluvchi tanqidiy-tahliliy qarashlar ham mavjud bo'lib, ular ushbu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish, mukammal holga keltirish uchun xizmat qiladi. Jumladan, professor M.Mirtojiyev leksik ma'no asosidagi referentlararo aloqadorlikning namoyon bo'lishi, nominativ va hosila ma'nolar, figural ma'nolarni ajratishni, N.Mahmudov esa tilshunoslar tomonidan kognitiv va lisoniy metaforaning alohida izohlanishini tanqid qilib, lisoniy metaforaning kognitiv metaforasiz yuzaga kelishini mantiqdan tashqarida deb hisoblash lozimligini o'z asarlarida bayon etadi.

Hozirda ham metaforologiya rivoji keng doirada davom etmoqda. Ushbu sohadagi yangi izlanishlar natijasi «Metaphor in Scientific Thinking» (www.csc.liv.ac.uk/~rcp/metaphor.html); «Искусство метафоры» (<http://metaphor.narod.ru>) internet sahifalari; "Metaforalarning onlayn qomusi"

(www.compapp.dcu.ie/~tonyv/encyc/cyc_frame.html); «Metaphor and Symbol» (citd.scar.utoronto.ca/Metaphor/Journal.html) elektron jurnallarida yoritib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, nutq ta'sirchanligi va ifodaviyligini oshirishga xizmat qiluvchi mazkur ko'chim o'z amaliy ahamiyati bilan qadimgi davrdan bugungi kunga qadar bir qator tadqiqotlarning o'rganish obyekti aylandi. Metaforaga kognitiv yondashuv ularni inson tafakkuri va bilish faoliyatining mahsuli, uni konseptual ifodalovchi konstruksiyalar sifatida ko'rish imkonini beradi. Nutq jarayonida metaforadan o'rinli foydalanish so'zlovchining badiiy-estetik qobiliyati namoyon qiladi, nutqning ta'sirchanligi, jozibadorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov X. O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlarining sintaktik xususiyatlari bo'yicha kuzatishlar. –T.: Fan, 1971.

2. Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2015. - 192 b.

3. Xo'jamqulov A. O'zbek tilida metaforaning tasniflanishiga doir. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlab chiqarilgan ilmiy maqolalar to'plami. Lingvist. 2-kitob. – T.: Akademiya nashri, 2011. – B. 85–88.

4. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T., 2007. – 151 b.

5. Сви́репо О.А. Метафора как код культуры: Автореферат дисс. кан. философских наук. - Ростов-на-Дону, 2002.

<http://www.dissertat.com/content/metafora-kak-kod-kultury>.

6. Хожиев А.П. Тилшунослик терминларининг изохли лугати. – T.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. - 163 б.

7. www.google.uz

8. www.harvard.edu

9. www.uza.uz

10. www.ziyouz.com

Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari

Anorboyzoda Feruza,
Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada til muloqot uslubi ekanligi va o'zga madaniyatni o'rganadi, til nafaqat muloqot quroli balki fikrni shakllantiruvchi va madaniyatni ifoda qiluvchi vosita roliga namoyon bo'lishi va madaniyatlararo aloqa vositasi ekanligi haqida fikrlar bayon etilgan.

O'zbek tilida chorvachilikka oid terminlar O'rinova Olima	279
Detektiv fantastikasining tarixiga oid ba'zi ta'riflar Niyazova Gulnoraxon	282
Ingliz va o'zbek tillarida maqol va matallar Abduvaliyev Muhammadjon, Mamadaliyeva Gulruh, Yusupova Xabibaxon	285
Abdulla Qahhor hikoyalaridagi xususiy-muallif (favqulodda) o'xshatishlar Almamatova Shahnoza	289
Muttasil va munfasil harflarning qo'llanish o'rni Muratova Nafisa	293
Yaratilishida diniy omil muhim bo'lgan maqollar (<i>"Tuya" lug'aviy-ma'noviy guruhi qatnashgan maqollar asosida</i>) Jumayeva Marjona	296
Metaforaning o'rganilishi Sharipova Ozoda	300
Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari Anorboyzoda Feruza	303
-da yuklamasining semantik-grammatik, pragmatik xususiyatlari haqida Hasanova Dilafuz	308
Amaliy frazeografiya sathida tub so'z va ko'chma ma'no takomili Abdullayev Davron	312
Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romanida badiiy nutq va uslub Saymuratova Ijobat	316
Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida tarixiy so'zlarni qo'llash mahorati Qambarov Ma'rufjon	321
Buyruq va so'roq gaplarning publisistik matnlarda qo'llanilishi Shermamatova Nozanin	325
G'arb falsafasida qarama-qarshilik kategoriyasi Ubaydova Hulkarbegim	329
Asos va prefiksoidlar munosabati Shoniyozova Gulshoda	332
O'zbek xalq maqollari poetikasi Hamidova Zuhro	337
Aniqllovchi ergash gaplarni transformatsiyalashdagi semantik-sintaktik jarayonlar Ibragimova Latofat	341
Tilshunoslikning shakllanish bosqichlari Karimov Farhod	343
Odorik birliklar lingvopoetikasi Burxanova Mashhura	348